

“YOZMA ISH VA TEST TIZIMINING O‘QUVCHILAR BILIMINI ANIQ BAHOLASHDAGI AHAMIYATI VA MILLIY BAHOLASH TIZIMI”

Mordanaqulova Maxfuza Meliqul qizi

Termiz Davlat Universiteti

O‘zbek tili fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ta’lim tizimida o‘quvchilarni bilimni baholash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bilimni aniqlash va baholash uchun turli metodlardan foydalaniladi, jumladan, yozma ish va test tizimi. Har ikkala baholash usuli o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, ularning samaradorligi ta’lim maqsadi, fan turi va o‘quvchilarning qobiliyatiga bog‘liq. Ushbu maqolada yozma ish va test tizimining o‘quvchilar bilimni baholashdagi o‘rni, ularning samaradorligi va qaysi biri yaxshiroq natija berishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, test, yozma ish, bilim, hikoya va badiiy matn, insho, diktant, yozma ishlarni baholash, imlo, esse yozish, til va uslub, mustaqil fikrlash, referat, xulosa, o‘quvchi bilim salohiyati, metod, texnologiya

Milliy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimni baholash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon ta’lim sifatini oshirish va nazorat qilish uchun xizmat qiladi. O‘zbekistonda baholashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida yozma ishlar va test tizimi asosiy o‘rin tutadi. Yozma ish o‘quvchilarning bilimni chuqur baholash, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy yondashuvini tekshirish imkonini beruvchi muhim baholash usulidir. O‘zbekiston ta’lim tizimida baholash tizimi

Baholash tizimining maqsadi-O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida baholash tizimining asosiy maqsadi o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ularning rivojlanishini kuzatish va ta’lim sifatini oshirish deb belgilangan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy baholash tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, quyida ularning asosiy shakllari haqida to‘xtalamiz.

1. An’anaviy baholash tizimi – joriy nazorat, oraliq va yakuniy baholash.
2. Test tizimi – davlat attestatsiyalarida va oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida qo‘llaniladi.
3. Yozma ishlar – an’anaviy baholash tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Yozma ishlarning turlari O‘zbekiston ta’lim tizimida yozma ishlarning quyidagi turlari mavjud:

Insho va esse – o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati ijodiy fikrlash va matn tuzish qobiliyati va ijodkorligi baholanadi.

Diktant va matnni qayta hikoya qilish – o'quvchining grammatik savodxonligi va yozma nutq qobiliyati tekshiriladi.

Tahliliy yozma ishlar (maqola, referat, xulosa) – mavzuni chuqur o'zlashtirish va dalillash qobiliyati baholanadi.

Hisob-kitob va masalalar yechimi (aniq fanlarda) – mantiqiy tafakkur va amaliy bilimlarni qo'llash qobiliyati o'lchanadi.

Yozma ish va test tizimining ta'limdagi o'rni benihoya katta, chunki bu usul quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir.

- O'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

- Mustaqil izlanish va yozma nutqni shakllantirishga yordam beradi

- Murakkab tushunchalarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi

- O'quvchilarni mavzuni kengroq o'rganishga undaydi

Test tizimi – esa o'quvchilarning bilimni tezkor va ob'ektiv baholash imkonini beruvchi metod bo'lib quyidagi jihatlari bilan ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi.

- Bilimni tezkor baholash imkonini beradi

- O'qituvchilar uchun qulay va vaqtni tejaydi

- O'quvchilarning keng qamrovli mavzular bo'yicha bilimni tekshiradi

- Subyektiv baholash ehtimolini kamaytiradi

Testlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Tanlovli testlar – bir nechta javob variantlari orasidan to'g'ri javobni tanlash orqali bilimni tekshirish.

To'ldirish testlari – jumlada tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirish orqali bilish darajasini aniqlash.

Moslashtiruvchi testlar – to'g'ri tushunchalar va ma'lumotlarni bog'lash orqali fikrlash qobiliyatini tekshirish.

Qisqa javobli testlar – savollarga qisqa va aniq javob berish orqali eslab qolish va tushunish darajasini baholash.

Yozma ish va test tizimining afzallik va kamchiliklari haqida to'xtalsak, xo'sh qaysi tizim bilimni aniq baholashga yordam beradi?

Yozma ish

Afzalliklari: O'quvchining mantiqiy fikrlashini, ijodiy tafakkurini va mustaqil yozish qobiliyatini rivojlantiradi, o'z fikrini aniq va izchil ifodalash imkonini beradi, yozma nutq savodxonligini oshiradi

Kamchiliklari: Tekshirish va baholash ko'p vaqt talab qiladi, subyektiv baholash ehtimoli bor, yozuv qobiliyati past o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin

Test

Afzalliklari: Bilimni tezkor baholash imkonini beradi, tezkor xotira va tog'ri tanlash qobiliyatiga asoslanadi, taxminiy baholash va inson omilini kamaytiradi

Kamchiliklari: O'quvchilarning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini baholay olmaydi, Testlar yodlashga asoslangan ta'limga olib kelishi mumkin

1. Aniq fanlar uchun, Matematika, fizika, kimyo kabi aniq fanlarda test tizimi samaraliroq hisoblanadi, chunki u o'quvchining formulalar, hisob-kitoblar va aniq tushunchalarni bilishini tekshirish imkonini beradi. Biroq, murakkab masalalar va nazariy savollar uchun yozma ish ham muhim ahamiyatga ega.

2. Gumanitar fanlar uchun. Ona tili, adabiyot, tarix kabi fanlarda yozma ishlar samaraliroq hisoblanadi. Chunki bu fanlarda fikrlash, tushunchalarni izohlash va tahlil qilish muhim bo'lib, test orqali bunday qobiliyatlarni aniq baholash qiyin.

3. Yaratuvchanlik va tanqidiy fikrlashni baholashda ijodiy fikrlash talab qilinadigan fanlarda yozma ishlar samarali bo'ladi. Test tizimi faqat tayyor bilimlarni tekshirsa, yozma ish o'quvchining yangi g'oyalar yaratish va ularni asoslash qobiliyatini baholaydi.

4. Eng samarali yondashuv – kombinatsiyalash. Ta'limda yozma ish va test tizimidan kombinatsiyalashgan holda foydalanish eng yaxshi natija beradi. Testlar yordamida asosiy bilimlar tekshirilsa, yozma ish orqali fikrlash va tahlil qilish qobiliyati baholanadi.

Ta'lim sifatini oshirishda boshlang'ich sinflarda – yozma ishga ko'proq e'tibor berish (diktant, matn yozish, savodxonlik mashqlari).

O'rta sinflarda – yozma ish va test tizimining kombinatsiyalangan holda qo'llanilishi.

Yuqori sinflarda – test tizimi orqali aniq baholash, yozma ishlar orqali esa ijodiy va analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida ahamiyat berish kerak

Xulosa

Yozma ish va test tizimi o'quvchilarning bilimni baholashda o'ziga xos o'ringa ega. Testlar bilimni tez va aniq baholash imkonini bersa, yozma ishlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eng samarali yondashuv – har ikkala usulni ta'lim jarayonida muvozanatli qo'llashdir. Buning uchun qaysi o'rinlarda test usulidan, qay o'rinda yozma ishlardan foydalanish uchun tavsiyalar berib o'tamiz.

Aniq fanlarda test tizimi ko'proq qo'llanilishi lozim.

Gumanitar fanlarda yozma ish afzal ko'rilishi kerak.

O'quvchilar bilimni to'liq baholash uchun yozma ish va test tizimini birgalikda ishlatish eng samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi". – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. Vahobov A., Usmonova M. "Pedagogik baholash va zamonaviy test tizimlari". – Toshkent: Fan, 2022.
4. Hasanboyeva O., Qodirov M. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
5. UNESCO. "Assessment in Education: Principles, Policy & Practice". – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
6. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Ta'lim portali.
7. www.ziyonet.uz – O'quv materiallari va metodik tavsiyalar bazasi.